

"Kapitalbank"

AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

2022-yil 6-oktabrda Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishini e'lon qiladi.

Hurmatli aksiyadorlar!

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi quyidagi manzilda bo'lib o'tadi: Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch. 1. "Kapitalbank" ATB Yashnabod filialida.

E-mail info@kapitalbank.uz, veb-sayt www.kapitalbank.uz.

Ro'yxatdan o'tishning boshlanishi - soat 13:30 da.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining boshlanish vaqti - soat 14:00 da.

" Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati **2022-yil 30-sentyabr** holatiga ko'ra bank aksiyadorlari reestriga muvofiq tuziladi.

Kun tartibi:

1. Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lash, dividendlar miqdori, to'lov shakli va tartibi to'g'risidagi qarorni tasdiqlash to'g'risida.
2. Yangi tahrirdagi "Kapitalbank" ATB Ustavini tasdiqlash to'g'risida.
3. "Kapitalbank" ATB tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida.

Eslatma: aksiyadorning Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishidagi vakili vakil haqidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan joyi, pasport ma'lumotlari) ko'rsatilgan yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida harakat qiladi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlanishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.